



№4

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Uzoq muddatli davrda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishning muqobil ssenariylari	7
2.	Умарова Зумрад Низомиддин кизи	Консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузиш: таъминлар, усуллар ва замонвий ёндашувлар	13
3.	Sayipov Begzod Rahimovich	Valyuta kursi va mehnat bozori barqarorligi o'rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashda monetar siyosatning roli	25
4.	Sharipov G'ulomjon Qarshi o'g'li	Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari	32
5.	Кабилова Шахноза Жураевна	Организационно-управленческий механизм развития сферы услуг в малом бизнесе (на примере Кашкадарьинской области)	38
6.	Xamdamov Sardor Farmon o'g'li	Davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishning xorijiy tajribasi va undan milliy amaliyotda foydalanish imkoniyatlari	43
7.	Primkulova Zilola Abrorovna	Xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning nazariy asoslari	48
8.	Kilichev Alisher Akramovich	Mavsumiy ishlab chiqarishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning xorijiy tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	52
9.	Vaisov Dilshod Ibodullayevich	Xorijiy amaliyotda kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishning integratsiyalashgan institutsional yondashuvlari	57
10.	Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li	Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini transformatsiyalash va MHXSga o'tish istiqbollari	65
11.	Мурадов Бахром Акрамжанович	Темир йўл соҳасида инновацион инфратузилмани ривожлантириш механизмлари	72
12.	Адилов Рустам	Модели кредитного скоринга на основе больших данных: влияние на рост выручки финтех-компаний	78
13.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Investitsiya muhitini qulaylashtirish orqali hududiy investitsiya mexanizmini faollashtirish	84
14.	Саттаров Тулкин Абдихалилович	Ишлаб чиқариш харажатларининг корхоналар молиявий ҳолатига таъсири	92
15.	Kholikov Khamidulla	The current state of government securities market operations in Uzbekistan's financial market and existing problems	101
16.	Mahmudov Fayzulla Murodullayevich	Mintaqa iqtisodiy rivojlanishida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	113
17.	Uralov Farruh Abdurazzoqovich	Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasining baholanishi	119
18.	Anvarova Lobarxon Sherzod qizi	Big Data va analitik platformalar asosida qaror qabul qilish tizimini rivojlantirish	125
19.	Tojimurodov Shohzod	Mamlkat aholisining bank kreditlari bo'yicha qarz yuki tahlili va uni optimallashtirish yo'llari	131
20.	Doniyev Shahob O'tkir o'g'li	Iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning tutgan roli hamda ahamiyati	137
21.	Razikova Nozima Erkin qizi	Biznes subyektlarini moliyalashtirish asosida aholi bandligini ta'minlash	142
22.	Назарова Дияра	Совершенствование цифровых подходов к оценке кредитоспособности хозяйствующих субъектов в коммерческих банках Республики Узбекистан	153
23.	Mirmahmudova Xusniddinovna	O'zbekiston kapital bozorida sukukka institutsional investorlarni jalb etish istiqbollari	160





24.	Djamalov G‘ofir Oribjanovich	Bank aktivlari sifatini oshirishda muammoli qarzlar va garov ta‘minotini boshqarish usullari	167
25.	Vaxabov Bobur Alisherovich	Raqamli to‘lov infratuzilmasida moliyaviy xatarlarni boshqarish va axborot xavfsizligini ta‘minlash mexanizmlari	179
26.	Abdurazakov Shavkat Shokirdjanovich	Turizm klasterlari faoliyatini moliyaviy va soliq mexanizmlari orqali iqtisodiy rag‘batlantirishni takomillashtirish	191
27.	Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi daromadlarini boshqarish mexanizmlari	202
28.	Salomov Abdusalom Ismatovich	Hududiy infratuzilma ta‘minotiga “Yashil” standartlarni joriy etish yo‘llari	207
29.	Орипов Ильхом Абдуллаевич	Проблемы формирования национальной системы зеленого финансирования в странах с переходной экономикой	214
30.	Tulyaganov Kudratilla Asatullayevich	O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini transformatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari	225
31.	Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	Temir yo‘l transporti korxonalarida ekologik-iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning tashkiliy-iqtisodiy va innovatsion mexanizmlari	232
32.	Uralov Elshod Sirojiddin o‘g‘li	Mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning shakllari va rivojlanish xususiyatlari	240
33.	Qodirov Bahodir Qudratovich	Bevosita soliq solishni optimallashtirish va yashillashtirish masalalari	245
34.	Agabekyan Roza Samvelovna	O‘zbekistonda loyihaviy moliyalashtirish asosida investitsiya resurslarini jalb qilish mexanizmini takomillashtirish	251
35.	Ерманова Камила Рустамовна	Цифровые финансовые инструменты в системе финансирования креативных индустрий: переоценка возможностей и ограничений	258
36.	Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna	Raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholash metodlarining rivojlanish bosqichlari	267
37.	Kalandarov Jamolbek Ravshonovich	O‘zbekistonda mikro, kichik va o‘rta biznesni kreditlash dinamikasi: 2026 yil yarim yillik natijalari va Silk Road Finance & Technology forum kontekstidagi tahlil	274
38.	Ergashev Rustam Rajabovich	Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishning huquqiy boshqaruv arxitekturasini takomillashtirish	280
39.	Sulaymonov Iskandar Boxodir o‘g‘li	Venchur kapital jalb etish samaradorligi indeksi (VKJSI): davlat va xususiy kapital multiplikativ samaradorligini baholash modeli	287
40.	Toshpo‘latov Shohruh Sobirjon o‘g‘li	Milliy iqtisodiyotda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishning institutsional asoslari va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish	294
41.	Salamov Islom Tashkazakovich	Banklarning transformatsion jarayonlarini ekonometrik tahlili	304
42.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	O‘zbekiston fond bozorida “Xalq IPO”si mexanizmlarini takomillashtirish va institutsional investorlar ishtirokini kengaytirish yo‘llari	312
43.	Radjabova Malikaxon	Elektron tijorat faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning zaruriyati va ahamiyati	323





44.	Sultanova Gulshira Alimbetovna	Suv taqchilligi sharoitida sholichilik tarmog‘ining innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy yo‘nalishlari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)	332
-----	--------------------------------	--	-----





ELEKTRON TIJORAT FAOLIYATIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI

Radjabova Malikaxon

*1-bosqich PhD tayanch doktorant,
Toshkent xalqaro universiteti
ORCID: 0009-0007-8377-6101
E-mail: malika060497@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotning maqsadi elektron tijorat faoliyati kontseptual mohiyatini yoritish, uning rivojlanishidagi global va milliy tendensiyalarni aniqlash hamda O'zbekiston Respublikasining ushbu sohadagi holatini mintaqaviy davlatlar (Qozog'iston, Qirg'iziston) bilan solishtirma tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, statistik-iqtisodiy va normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotda 2016–2024-yillarda elektron tijorat savdo hajmining o'sish dinamikasi va uning mintaqaviy raqobatchilardan orqada qolish sabablari aniqlangan. Natijalarga ko'ra, mahalliy elektron tijorat bozori yuqori o'sish sur'atiga ega bo'lsa-da, uning yalpi ichki mahsuloti va chakana savdodagi ulushi Qozog'iston Respublikasidan (benchmarking) sezilarli darajada orqada qolmoqda. Maqola yakunida raqamli infratuzilma, to'lov tizimlari va huquqiy baza sohalariga doir ustuvor yo'nalishlar bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, raqamli texnologiyalar, iqtisodiy samaradorlik, raqamli iqtisodiyot, elektron savdo hajmi.

НЕОБХОДИМОСТЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ

Раджабова Маликанхон

*Докторант PhD 1-го курса,
Ташкентский международный университет
ORCID: 0009-0007-8377-6101
E-mail: malika060497@gmail.com*

Аннотация. Целью данного исследования является раскрытие концептуальной сущности электронной торговли, выявление глобальных и национальных тенденций её развития, а также проведение сравнительного анализа состояния данной сферы в Республике Узбекистан с региональными государствами (Казахстан, Кыргызстан). В исследовании использованы методы сравнительно-аналитического, статистико-экономического анализа и анализа нормативно-правовых документов. В работе определена динамика роста объёма электронной торговли за 2016–2024 годы и причины отставания от региональных конкурентов. Согласно результатам, несмотря на высокие темпы роста местного рынка электронной торговли, его доля в валовом внутреннем продукте и розничной торговле значительно отстаёт от аналогичных показателей Республики Казахстан (бенчмаркинг). В заключение статьи даны рекомендации по приоритетным направлениям развития цифровой инфраструктуры, платёжных систем и правовой базы.

Ключевые слова: электронная торговля, цифровые технологии, экономическая эффективность, цифровая экономика, объём электронной торговли.

THE NECESSITY AND IMPORTANCE OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN E-COMMERCE ACTIVITIES

Radjabova Malikaxon

First-year PhD student,





Tashkent International University

ORCID: 0009-0007-8377-6101

E-mail: malika060497@gmail.com

Abstract. *The purpose of this study is to reveal the conceptual essence of e-commerce activity, identify global and national trends in its development, and conduct a comparative analysis of the state of this sector in the Republic of Uzbekistan against regional countries (Kazakhstan, Kyrgyzstan). The study employs comparative-analytical, statistical-economic, and normative-legal document analysis methods. The research identifies the growth dynamics of e-commerce trade volume during 2016–2024 and the reasons behind its lag relative to regional competitors. The results show that although the domestic e-commerce market demonstrates a high growth rate, its share in GDP and retail trade significantly lags behind that of the Republic of Kazakhstan (benchmarking). The article concludes with recommendations on priority directions in the fields of digital infrastructure, payment systems, and the legal framework.*

Keywords: *e-commerce, digital technologies, economic efficiency, digital economy, e-commerce trade volume*

Kirish

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar jahon iqtisodiyoti va jamiyat hayotining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib, insonlarning kundalik faoliyati, tadbirkorlik jarayonlari hamda iqtisodiy munosabatlarni tashkil etish mexanizmlarini tubdan o'zgartirmoqda. Ayniqsa, internet tarmog'i, bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), mobil ilovalar, raqamli to'lov tizimlari va boshqa zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida iqtisodiyotning an'anaviy faoliyat yuritish mexanizmlari bosqichma-bosqich raqamli formatga o'tmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, savdo va moliyaviy munosabatlarda yangi biznes modellarining shakllanishiga zamin yaratib, to'rtinchi sanoat inqilobiga o'tish jarayonini yanada jadallashtirmoqda. Mazkur jarayonda raqamlashtirish nafaqat mavjud iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish vositasi, balki yangi qiymat yaratish, mehnat unumdorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va bozor ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni takomillashtirishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

To'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida iqtisodiyotni raqamlashtirish, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining bozor imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Elektron tijoratning rivojlanishi tadbirkorlarga geografik jihatdan cheklangan an'anaviy bozorlar doirasidan chiqib, kengroq iste'molchilar segmentiga xizmat ko'rsatish, mahsulot va xizmatlarni onlayn shaklda taklif etish hamda savdo jarayonlarini qisqa vaqt ichida amalga oshirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, elektron tijorat platformalaridan foydalanish tadbirkorlik subyektlari uchun marketing xarajatlarini kamaytirish, mijozlar ehtiyojini tezkor aniqlash, individual takliflarni shakllantirish, to'lov va yetkazib berish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda biznes faoliyatining shaffofligini oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Natijada raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion biznes modellarini joriy etish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish faoliyatini rivojlantirishning muhim shartlaridan biriga aylanmoqda.

Ta'kidlash joizki, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda, iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning sifat jihatdan yangi mexanizmlarini shakllantirish uchun ham keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, raqamli platformalar va axborot tizimlari orqali katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor ravishda to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish va umumlashtirish imkoniyati iqtisodiy subyektlarning qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtirmoqda. Ushbu imkoniyatlar asosida bozor talabini prognozlash, iste'molchilar xatti-harakatlarini o'rganish, ishlab chiqarish va savdo jarayonlarini optimallashtirish hamda strategik darajadagi "aqlli boshqaruv" tizimlarini





tashkil etish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, elektron tijoratni raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish zamonaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish, innovatsion ishlab chiqarishlarni kengaytirish va mamlakatning raqamli iqtisodiyot sharoitidagi xalqaro raqobatbardoshligini mustahkamlashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadbirkorlarning o'z biznes faoliyatida raqamli texnologiyalardan keng foydalanishayotgani natijasida soha bosqichma-bosqich elektron ko'rinishga o'tib bormoqda. Bunda ayniqsa mijozlar uchun ijtimoiy qulayliklar yaratilmoqda, xususan, foydalanuvchilar vaqt va mablag'larini tejamoqda. Tadbirkorlik faoliyati va foydalanuvchilar xaridlarining onlayn amalga oshirilishi amaliyoti kengayib bormoqda. Natijada zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida yangi turdagi elektron tijorat sohasi shakllanmoqda.

Mavjud xalqaro adabiyotlarda elektron tijoratning rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan O'zbekiston misolida ushbu ta'sirni kompleks tarzda, ko'p omilli yondashuv asosida (raqamli infratuzilma, moliyalashtirish, huquqiy baza, inson kapitali, to'lov tizimlari, bozor kontsentratsiyasi va iste'molchi ishonchi omillarini birgalikda hisobga olgan holda) baholovchi tadqiqotlar amalda deyarli mavjud emas. Ayni shu holat, ya'ni rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston bo'yicha elektron tijoratning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini o'rganuvchi empirik va metodologik jihatdan asoslangan tadqiqotlarning yetishmasligi mazkur tadqiqotning ilmiy bo'shlig'ini tashkil etadi va uning dolzarbligini belgilaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu maqolaning maqsadi elektron tijorat faoliyati rivojlanishida global tendensiyalarni aniqlash va O'zbekiston Respublikasining ushbu sohadagi holatini mintaqaviy davlatlar bilan solishtirma tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Elektron tijorat tushunchasi qator xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan bevosita internet tarmog'i bilan bog'liq holda ta'riflangan va tushuntirilgan.

G'arb iqtisodchilaridan D.Eymor (2001) o'z tadqiqotlarida elektron tijorat deganda internet savdo tushunilishini ta'kidlagan [1]. Amerikalik iqtisodchi P.Gerpining (2011) fikriga ko'ra internet texnologiyalaridan foydalanilgan iqtisodiy faoliyatning barcha turlari elektron tijorat hisoblanadi [2]. Rossiyalik iqtisodchi I.Goldovskiy (2001) tomonidan esa tovarlarga buyurtmalarni internet orqali amalga oshirilgan savdoning barcha shakllari elektron tijoratga kirishi qayd etilgan [3]. Boshqa rossiyalik iqtisodchi I.Uspenskiy (2001) tomonidan berilgan ta'rif kengroq bo'lib, unda elektron tijorat deganda elektron usullar bilan amalga oshiriladigan, nomoddiy ayirboshlash va jismoniy muloqotsiz amaliyot natijasida mulkka bo'lgan egalik huquqining bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishida yuzaga keladigan tijorat kelishuvlarining barcha shakllari tushunilishi keltirilgan [4].

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrda qabul qilingan «Elektron tijorat to'g'risida»gi O'RQ-792-sonli Qonunida elektron tijorat tushunchasi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tadbirkorlik faoliyati doirasida axborot tizimlaridan foydalangan holda elektron savdo maydonchasi orqali tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan oldi-sotdisi deb ta'riflangan [5].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot uch bosqichli metodologik yondashuv asosida olib borildi. Birinchi bosqichda elektron tijorat tushunchasiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tizimli adabiyotlar sharhi usulida o'rganildi hamda tushunchaning kontseptual mazmuni tizimlashtirildi. Ikkinchi bosqichda tegishli statistic ko'rsatkichlar asosida tavsifiy tahlil usuli qo'llanildi. Bunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot bo'yicha organining B2C E-tijorat indeksi (UNCTAD B2C E-commerce Index), Jahon banki Global Findex, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hisobotlari hamda O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasining rasmiy





ma'lumotlari asosida elektron tijoratning global va milliy dinamikasi, shuningdek O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston bo'yicha qiyosiy tahlillar o'rganildi. Uchinchi bosqichda normativ-huquqiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston Respublikasining «Elektron tijorat to'g'risida»gi O'RQ-792-sonli Qonuni va «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlovchi PF-6079-sonli Farmoni tahlil qilinib, sohani tartibga soluvchi institutsional asoslar aniqlandi.

Tahlil va natijalar

O'rganilgan adabiyotlarga ko'ra elektron tijoratni an'anaviy tijorat bilan solishtirilganda bir qancha afzalliklari mavjud. Ushbu afzalliklardan manfaat oluvchilar to'rt yo'nalishga bo'linadi: iste'molchilar, tadbirkorlik subyektlari, jamiyat va iqtisodiyot (1-rasm).



1-rasm. Elektron tijoratni an'anaviy tijorat shakllaridan afzalliklariga ko'ra yo'nalishlari⁴³

Elektron tijatdan foydalanish jamiyatning umumiy rivojlanishida quyidagi ijobiy tomonlari bilan muhim o'rin kasb etadi:

- elektron tijoratda savdoni tashkil etish korxonalar raqobatini kuchaytiradi, monopoliyadan chiqaradi va mahsulotlar sifatini oshiradi;
- ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jaligi kabi sohalarida keng ko'lamdagi qo'shimcha xizmatlar yaratiladi;
- aholi yashash darajasi oshadi;
- tadbirkorlikda shaffoflik ta'minlanishi natijasida korrupsion holatlarning oldi olinadi; milliy xavfsizlik oshadi;
- iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoni tezlashadi;
- shaharda avtomobil qatnovi tirbandligi kamayadi va atrof-muhit ifloslanishining oldi olinadi.

Bundan tashqari, elektron tijorat mehnat bozorining kengayishi va malakali ishchi kuchidan foydalanish, eksport salohiyatining o'sishi, faoliyat turlarining kengayishi hamda davlat budgetining solikli va soliqsiz daromadlarining ko'payishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development), AQSh, Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi tomonidan kelishilgan holda elektron tijorat faoliyatini tashkil etishning to'rtta asosiy tamoyili ishlab chiqilgan, ular:

- bozor munosabatlaridagi raqobat qoidalariga ko'ra elektron tijorat rivojlanishida xususiy tarmoqning yetakchiligi;

⁴³ Tadqiqot jarayonida muallif tomondan ilmiy adabiyotlarni o'rganish natijasida shakllantirildi.






-davlat aralashuvining minimal darajada bo'lishi va xalqaro huquqni muvofiqlashtirishning barqaror tizimi shakllanishiga ko'maklashish;

-sohaning global xususiyatiga ko'ra davlat siyosatining xalqaro darajada o'zaro kelishilgan bo'lishi;

-elektron tijoratni soliqqa tortish jarayonining an'anaviy shaklga nisbatan betaraf, xalqaro me'yorlarga mos va kam xarajatli bo'lishi [6].

Dunyo bo'ylab internetning keng tarqalishi biznes va savdo amaliyotlarini tez va tubdan o'zgartirdi. 1991-yilda dunyo bo'yicha internet foydalanuvchilari soni 3 milliondan kam bo'lgan va elektron tijorat mavjud emas edi. 1999-yilga kelib, taxminan 250 million kishi internetdan foydalangan, ularning qariyb chorak qismi esa elektron tijorat saytlarida umumiy qiymati taxminan 110 milliard dollar bo'lgan onlayn xaridlarni amalga oshirgan [7]. Oradan yigirma yildan ko'proq vaqt o'tib, onlayn xarid qiluvchilar soni keskin ko'paydi: Jahon banki Global Findex ma'lumotlar bazasiga ko'ra, 2021-yilda taxminan 2,3 milliard kishi onlayn xarid qilgan [8]. 2010-yildan buyon ko'plab mamlakatlarda elektron tijorat sezilarli darajada o'sdi va COVID-19 pandemiyasi bu jarayonni yanada tezlashtirdi (2-rasm).



2-rasm. Tanlangan iqtisodiyotlar va yillarda onlayn xarid qilgan internet foydalanuvchilari ulushi⁴⁴

Shu bilan birga, aholining elektron tijoratdagi ishtiroki mamlakatlar kesimida hanuz keskin farq qiladi. Eng yuqori ko'rsatkich qayd etilgan mamlakatlarda aholining 80 % dan ortig'i onlayn

⁴⁴ UNCTAD (2024). B2C E-commerce Index. UN Trade and Development. <https://unctad.org/topic/ecommerce-and-digital-economy/measuring-ecommerce-digital-economy>





xarid qiladi, aksariyat eng kam rivojlangan mamlakatlarda esa bu ulush 10 % dan pastligicha qolmoqda [9]. 2024-yil sentyabr oyida qabul qilingan Kelajak uchun Pakt tarkibidagi Global Raqamli Kelishuv ham xuddi shu yo'nalishda bo'lib, raqamli tafovutlarni bartaraf etish, inklyuziv va barqaror raqamli iqtisodiyotlarga erishish hamda ma'lumotlarni yaxshiroq boshqarishning muhimligini ta'kidlaydi [10]. Global elektron tijorat bozori 2016–2022-yillarda 60 % ga o'sib, 27 trln. dollarga yetgan, bu esa YaIM o'sishidan tezroq kengaymoqda va mamlakatlar uchun ulushni qo'lga kiritish yoki yo'qotish xavfini oshiradi [11].

UNCTAD tomonidan mamlakatlarning elektron tijoratga tayyorligini baholovchi rasmiy indeks “UNCTAD B2C E-commerce Index” ishlab chiqiladi. Ushbu indeks har yili chop etilib, dunyo mamlakatlarini (so'nggi nashrlarda 130 dan ortiq mamlakat) to'rtta asosiy ko'rsatkich asosida reytingga joylashtiradi. 1-jadvalda UNCTAD B2C indeksining O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston bo'yicha solishtirma ma'lumotlari keltirilgan. Qozog'iston Respublikasining ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqori bo'lganligi sababli u O'zbekiston uchun benchmarking (etalon sifatida solishtirish) maqsadida tanlab olingan.

1-jadval

UNCTAD B2C indeksida O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston solishtirmasi*

Ko'rsatkich	O'zbekiston	Qozog'iston	Qirg'iziston
E-commerce bozor hajmi, 2024	~1,2 mlrd. AQSH dollari (chakana savdoning 3,8%)	~7,3 mlrd. AQSH dollari (chakana savdoning 15,3%)	~360 mln. AQSH dollari
2023–2024 o'sish sur'ati	~30–47 %	~42 %	Barqaror (past sur'atli)
Internetdan foydalanish darajasi	~77–87 %	~92,9 %	Past (rivojlanmoqda)
UNCTAD B2C indeksidagi tendensiya	O'sish jarayonida; ko'rsatkichlari Qozog'istondan past	Mintaqada yetakchi, indeksda tez sur'atlarda yaxshilanmoqda	Benchmarking tadqiqotlarida referens sifatida qo'llanilmoqda

*Manba: UNCTAD B2C E-commerce Index (turli yillar nashrlari); AQSh Savdo Departamentining O'zbekiston va Qozog'iston bo'yicha Country Commercial Guides — eCommerce (2024–2025) hisobotlari asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan [11].

1-jadval natijalariga ko'ra, O'zbekistonning elektron tijorat bozori nisbiy hajm jihatidan Qozog'istondan sezilarli darajada orqada qolmoqda, biroq o'sish sur'ati (30–47 %) mintaqada eng yuqorilaridan biri hisoblanadi. Bu esa infratuzilma va raqamli to'lov tizimlariga qilinayotgan investitsiyalar samara bera boshlaganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, internetdan foydalanish darajasi (77–87 %) Qozog'istonnikidan (92,9 %) pastroq bo'lib, bu UNCTAD indeksidagi asosiy tarkibiy qismlardan birida O'zbekiston uchun o'sish salohiyati mavjudligini ko'rsatadi [12].

O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat faoliyati 2022-yil 29-sentabrda qabul qilingan «Elektron tijorat to'g'risida»gi O'RQ-792-sonli Qonuni asosida tartibga solinadi [13]. Ushbu normativ-huquqiy hujjat elektron tijorat sub'yektlari o'rtasidagi munosabatlarni kompleks tarzda tartibga solib, sotuvchi, xaridor va axborot vositachilarining huquqiy holatini, ularning davlat ro'yxatidan o'tkazilishi tartibini, shuningdek elektron savdo maydonchalari orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarning huquqiy asoslarini belgilaydi. Qonunda mustahkamlangan tadbirkorlik erkinligi, shartnoma tuzishning ixtiyoriyligi, ishtirokchilar o'rtasidagi tenglik, jarayonlarning ochiqligi va axborot xavfsizligini ta'minlash kabi tamoyillar elektron tijoratning institutsional asosini tashkil etadi. Bunda Raqamli texnologiyalar vazirligi soha bo'yicha vakolatli davlat organi sifatida belgilangan.

Mazkur qonun elektron hujjat aylanishini an'anaviy qog'oz shaklidagi hujjat aylanishi





bilan huquqiy jihatdan tenglashtirish orqali raqamli iqtisodiyot subyektlari o'rtasidagi bitimlarning yuridik kuchga ega bo'lishini ta'minlaydi: SMS, Face-ID kabi identifikatsiya usullari orqali tasdiqlangan aksept qog'ozdagi qo'lda imzolangan hujjat bilan bir xil huquqiy maqomga ega deb tan olinadi. Shu bilan birga, qonun iste'molchilarning tovar (ish, xizmat) to'g'risida to'liq va ishonchli axborot olish huquqini, elektron tijorat sub'yektlari o'rtasidagi teng sharoitlarni hamda to'langan mablag'larni qaytarish tartibini belgilash orqali xaridorlarning huquqlarini himoya qilish mexanizmini shakllantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasi mamlakatda raqamli iqtisodiyotni, jumladan elektron tijorat sohasini, kompleks rivojlantirish uchun institutsional asos bo'ldi [14]. Strategiyaning tegishli bandida quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan: masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish; elektron tijoratning huquqiy asoslari va standartlarini xalqaro talablarga muvofiq takomillashtirish; raqamli infratuzilmani rivojlantirish orqali elektron tijorat platformalariga ulanish imkoniyatlarini kengaytirish; pochta va logistika infratuzilmasini modernizatsiyalash, jumladan fulfilment markazlarini yaratish; to'lov agregatorlarini rivojlantirish; transchegaraviy elektron tijoratni rivojlantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarini eksport qilishni ta'minlash; QR-to'lov va NFC texnologiyalarini joriy etish; sohada malakali kadrlar tayyorlash.

Yuqorida ta'kidlangan ijobiy tomonlar bilan bir qatorda, o'tkazilgan tahlil elektron tijorat sohasida iste'molchilar va bozor uchun quyidagi xavf hamda noqulayliklarni ham aniqladi:

- onlayn sotilayotgan tovarlarga iste'molchining ishonchsizligi;
 - xarid qilingan tovarni darhol emas, bir muddat kutib olish zarurati;
 - tovar qaytariladigan taqdirda to'langan mablag'ni qaytarib olishdagi murakkabliklar;
 - yetkazib berish uchun qo'shimcha haq to'lanishi natijasida tovar narxining oshishi;
- raqamli tayyorgarlik va infratuzilma tengsizligi;
- raqamli tijorat korxonalarini moliyalashtirishdagi tanqislik;
 - huquqiy-tartibga solish bazasidagi bo'shliqlar; raqamli ko'nikmalar va inson kapitali darajasining pastligi;
 - to'lov tizimlari samaradorligining pastligi; bozor kontsentratsiyasi va raqobat muammosi;
 - iste'molchi ishonchi va ma'lumot shaffofligi muammosi;
 - sohaga oid metodologik va empirik tadqiqotlarning yetishmasligi.

Muhokama

O'tkazilgan tahlil natijalari uch asosiy xulosani shakllantirish imkonini beradi. Birinchidan, raqamli texnologiyalar xalqaro elektron tijoratda endi tanlov emas, balki raqobatbardoshlikning zaruriy sharti hisoblanadi. Bu xulosa Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida qabul qilingan Global Raqamli Kelishuv kabi siyosiy hujjatlar bilan ham tasdiqlanadi. Ular raqamli hamkorlik, sun'iy intellekt boshqaruvi, raqamli tenglik va internet infratuzilmasiga oid global tamoyillarni belgilaydi [15]. Ikkinchidan, global elektron tijorat bozori (2016–2022-yillarda 60 % o'sib, 27 trln. dollarga yetgan) YaIM o'sishidan tezroq kengaymoqda, bu esa sekin moslashuvchi mamlakatlar uchun bozor ulushini yo'qotish xavfini kuchaytiradi. Uchinchidan, UNCTAD B2C E-commerce Index kabi xalqaro indekslar O'zbekistonga o'z pozitsiyasini mintaqaviy raqobatchilar bilan solishtirish va aniq yo'nalishlarda internet qamrovi, raqamli to'lov infratuzilmasi, pochta yetkazib berish sifati ustuvor investitsiyalarini belgilash imkonini beradi.

O'zbekistonda kuzatilayotgan yuqori o'sish sur'ati (2023–2024-yillarda 14–47 %) bilan bozorning nisbatan kichik hajmi (chakana savdoning atigi 3,8 %) o'rtasidagi tafovut mavjud. Unda mamlakat elektron tijorat rivojlanishining dastlabki, jadal ekstensiv bosqichida bo'lib, qo'shni Qozog'iston esa allaqachon barqaror kengayish bosqichiga o'tgan. Internetdan foydalanish darajasidagi farq (77–87 % va 92,9 %) shuni ko'rsatadiki, raqamli infratuzilma qamrovi hali ham asosiy cheklovchi omillardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, «Elektron tijorat to'g'risida»gi Qonun va «Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasining qabul qilinishi institutsional asoslarning





shakllanganligini ko'rsatadi. Biroq amaliyotda to'lov tizimlari samaradorligi, logistika infratuzilmasi va iste'molchilar ishonchi kabi omillar bo'yicha hali ham sezilarli bo'shliqlar mavjud.

Xulosa va tavsiyalar

O'tkazilgan tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- elektron tijorat tushunchasi nazariy jihatdan internet texnologiyalari orqali amalga oshiriladigan barcha iqtisodiy-tijorat munosabatlarini qamrab oladi va u iste'molchilar, tadbirkorlik subyektlari, jamiyat hamda iqtisodiyot uchun tizimli afzalliklarga ega;

- global miqyosda elektron tijorat bozori an'anaviy iqtisodiyot o'sishidan tezroq sur'atlarda kengaymoqda, biroq mamlakatlar o'rtasida raqamli infratuzilma va foydalanish darajasi bo'yicha keskin tengsizlik saqlanib qolmoqda;

- O'zbekiston elektron tijorat savdo hajmi bo'yicha 2016–2024-yillarda yuqori o'sish sur'atlariga (jami taxminan 2200 barobar) erishgan bo'lsa-da, bozorning YaIM va chakana savdodagi ulushi mintaqaviy yetakchi Qozog'istondan sezilarli darajada past bo'lib qolmoqda;

- «Elektron tijorat to'g'risida»gi O'RQ-792-sonli Qonun va «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiya sohani institutsional jihatdan tartibga solish uchun zarur huquqiy asosni yaratgan bo'lsada, biroq uni amalga oshirishda internet qamrovi, to'lov tizimlari va logistika infratuzilmasi bo'yicha bo'shliqlar mavjudligicha qolmoqda.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi: birinchidan, mamlakat hududlari, xususan qishloq joylarida internetdan foydalanish darajasini oshirish bo'yicha maqsadli dasturlarni kuchaytirish, chunki bu ko'rsatkich UNCTAD indeksidagi asosiy tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi; ikkinchidan, raqamli to'lov infratuzilmasi va to'lov agregatorlari tizimini yanada rivojlantirish orqali onlayn to'lovlarning qulayligi va xavfsizligini oshirish; uchinchidan, pochta va fulfilment (logistika) markazlari tarmog'ini kengaytirish orqali yetkazib berish xarajatlarini va muddatlarini qisqartirish; to'rtinchidan, iste'molchilarning onlayn savdoga ishonchini oshirish maqsadida tovar sifati va qaytarish tartib-taomillari bo'yicha shaffoflikni ta'minlovchi mexanizmlarni takomillashtirish; beshinchidan, elektron tijoratning iqtisodiy samaradorligini miqdoriy baholovchi milliy metodologiya va statistik hisobot tizimini ishlab chiqish, bu esa kelgusida sohani empirik tadqiq etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to'g'risida”gi Qonuni, 29.09.2022-yildagi O'RQ-792-son. // <https://lex.uz/docs/-6213382>

2. Эймор Д. Электронный бизнес. Эволюция и/или революция. – М.: Вильямс, 2001. – 320 с.

3. Gary P. Electronic Commerce, Ninth Edition. – Schneider, Phd, CPA. Printed in the United States of America, 2011. – P. 4.

4. Голдовский И. Безопасность платежей в Интернете. – СПб.: Питер, 2001. – 240 с.

5. Успенский И. Энциклопедия Интернет-бизнеса. – СПб.: Питер, 2001. – С. 61.

6. Электронная торговля в России: перспективы развития и роста: доклад Американской Торговой Палаты в России при участии Торгово-Промышленной Палаты Российской Федерации, 2001. – С. 8–9.

7. OECD (2000). E-Commerce: Impacts and Policy Challenges. OECD Economics Department Working Papers, No. 252. – Paris: OECD Publishing.

8. World Bank (2021). The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. – Washington, DC: World Bank.

9. UNCTAD (2024). B2C E-commerce Index. UN Trade and Development. // <https://unctad.org/topic/ecommerce-and-digital-economy/measuring-ecommerce-digital-economy>

10. UNCTAD B2C E-commerce Index (turli yillar nashrlari); U.S. Department of Commerce, Uzbekistan va Kazakhstan Country Commercial Guides — eCommerce (2024–2025);





News Central Asia, “Report: State of E-Commerce in Central Asia” (2025).

11. United Nations (2024). Global Digital Compact. Annex to the Pact for the Future, adopted at the Summit of the Future, 22 September 2024, New York.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. “Elektron tijorat savdo hajmi (yillik)” indikatori (kod: 1.07.02.0019). // https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_2833.pdf

13. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Elektron tijoratda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi (yillik). Raqamli iqtisodiyot bo‘limi. Ma‘lumotlar to‘plami kodi: 1.01.05.0007. // <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot>

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Farmoni. // <https://lex.uz/docs/5030957>

